

О'Н ОЛТИ YOSHGA TO'LMAGAN SHAXS BILAN JINSIY ALOQA QILISH VA JINSIY EHTIYOJNI G'AYRI TABIIY USULDA QONDIRISH JINOYATINING JINOIY HUQUQIY TAVFSIFI

Risqibayev Mansur Dilshod o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Аннотатсия: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 128-moddasi bo'yicha 16 yoshga to'lmagan shaxslar bilan zo'ravonliksiz jinsiy aloqa qilish jinoyatining huquqiy tarkibi chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlik tushunchalarining nazariy asoslari ochib berilgan, jinoyatning obyekti sifatida jamiyatda o'rnatilgan axloq-odob qoidalari va bolaning jismoniy-psixologik rivojlanishi ko'rsatilgan. Qiyosiy-huquqiy va tahliliy usullar yordamida jinoyatning barcha tarkibiy qismlari (obyekt, subyekt, obyektiv va subyektiv tomonlar) batafsil o'rganilgan, MDH mamlakatlari qonunchiligining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Maqolada subyekt sifatida 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs, obyektiv tomon sifatida ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan jinsiy aloqa, subyektiv tomon sifatida to'g'ridan-to'g'ri qasd belgilangan. Tadqiqot natijalari jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, sud amaliyotini yaxshilash va voyaga etmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Аннотация: В данной статье глубоко проанализирован правовой состав преступления в виде ненасильственного полового сношения с лицом, не достигшим 16-летнего возраста, предусмотренного статьей 128 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. В исследовании раскрыты теоретические основы понятий половой свободы и половой неприкосновенности, в качестве объекта преступления указаны установленные в обществе морально-этические нормы и физическое и психологическое развитие ребенка. С помощью сравнительно-правовых и аналитических методов детально изучены все составные элементы преступления (объект, субъект, объективная и

субъективная стороны), проведен сравнительный анализ законодательства стран СНГ. В статье в качестве субъекта определено вменяемое лицо, достигшее 16-летнего возраста, в качестве объективной стороны - добровольно осуществляемое половое сношение, в качестве субъективной стороны - прямой умысел. Результаты исследования направлены на совершенствование уголовного законодательства, улучшение судебной практики и защиту прав несовершеннолетних лиц.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the legal components of the crime of non-violent sexual intercourse with persons under 16 years of age, as defined by Article 128 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The study explores the theoretical foundations of sexual freedom and sexual inviolability concepts, identifying society's established moral norms and a child's physical and psychological development as the objects of the crime. Using comparative legal and analytical methods, all elements of the crime (object, subject, objective and subjective aspects) were examined in detail, and a comparative analysis of CIS countries' legislation was conducted. The article defines the subject as a mentally competent person who has reached 16 years of age, the objective aspect as voluntary sexual intercourse, and the subjective aspect as direct intent. The research findings aim to improve criminal legislation, enhance judicial practice, and protect the rights of minors.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan shaxs, bola huquqlari, bolalar ombudsmani, ijtimoiy himoya, xalqaro bola huquqlari, O'zbekiston qonunchiligi, obyekt, subyekt, axloq, normal jinsiy munosabat, jinsiy daxlsizlik.

Ключевые слова: несовершеннолетнее лицо, права ребенка, детский омбудсмен, социальная защита, международные права ребенка, законодательство Узбекистана, объект, субъект, нравственность, нормальные половые отношения, половая неприкосновенность.

Key words: minor, children's rights, children's ombudsman, social protection, international children's rights, Uzbekistan legislation, object, subject, morality, normal sexual relations, sexual inviolability.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning barkamol avlod bo'lib yetishishini ta'minlash, bolalarning ma'naviy, jismoniy va axloqiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishni ta'minlash maqsadida sud-huquq sohasida ham bir qancha islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

O'n olti yoshga to'lmagan shaxslarning normal rivojlanishiga tahdid qiluvchi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha jinoyat-huquqiy tadbirlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy muammolari har tomonlama ishlab chiqilmiqda, ayniqsa, o'n olti yoshga to'magan shaxslarning jinsiy erkinligiga qarshi sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha javobgarlik masalasi chuqur o'rganilmoqda.

Jinsiy erkinlik deganda nimani tushunish kerak? A.N.Ignatovning so'zlariga ko'ra, jinsiy erkinlik "Balog'at yoshiga etgan fuqarolarning jinsiy hayotini erkin belgilash huquqi va huquqiy layoqatini qamrab oladi"¹.

Izotov.N.N.ning pozitsiyasini yanada ishonchli deb hisoblash mumkin, "jinsiy erkinlik-bu jamiyatda belgilangan jinsiy munosabatlar doirasidagi erkinlik, boshqa shaxslar bilan jinsiy aloqada bo'lish, aks holda ularning jinsiy istagini qondirish va bu sohada hech qanday majburlash yoki majburlashga yo'l qo'ymaslik. Bu masalada insonning irodasini ifodalash"².

V.P.Konyaxin eng oqilona fikrga amal qilib, "yosh voyaga etmaganlar (14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar) va voyaga etmaganlar (14 yoshgacha bo'lgan

¹ Конвенция о борьбе с торговлей людьми и с эксплуатацией проституции третьими лицами от 2 декабря 1949 г. // Сборник действующих договоров, соглашений и конвенций, заключенных СССР с иностранными государствами. Вып. XVI. М., 1957.

² Изотов, Н.Н. Уголовная ответственность за насильственные действия сексуального характера. Автореф. дис.... канд. юрид. наук. Ставрополь, 2000.

shaxslar) uchun jinsiy daxlsizlik jinsiy aloqani yoki ular bilan har qanday jinsiy aloqani qonuniy ravishda taqiqlashdir, hatto ularning roziligiga qaramay”³.

Bizni qiziqtirgan navbatdagi masala O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 128-moddasida nazarda tutilgan qo‘shimcha jinoyat ob’ektini yaratish. Gap shundaki, bolalarga nisbatan zo‘ravonliksiz jinsiy aloqa qilish ularning keyingi jinsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta xavf tug‘diradi. Erta jinsiy aloqalar shaxsiyatning normal fiziologik va axloqiy-psixologik shakllanishini buzadi, bu ko‘pincha odamlarning keyingi hayotidagi buzuvchi jinsiy orientatsiyasiga olib keladi, ularning tanasiga psixotraumatik ta’sir ko‘rsatadi, oqibatlari hayot davomida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ushbu jinoyatning Jinoiy huquqiy tarkibiga nazar soladigan bo‘lgan bo‘lsak uning o‘ziga xos va bir necha nozik taraflariga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. **Obekti** bo‘lib jamiyatda o‘rnatilgan odob axloq qoidalari va shuningdek bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishi tashkil etadi. Jamiyatda o‘rnatilgan axloq odob qoidalari deganda qadim zamonlardan ma’lum jamiyat va xalqning urf odat va qadriyatlaridan kelib chiqib o‘rnatilgan qoidalar to‘plami bo‘lib hisoblanadi. O‘zbek xalqining ko‘pchilik urf odat qoydalari Islom dini qoidalari va Islom dinidan oldin mavjud bo‘lgan dinlar ta’sirida paydo bulganligi uchun oldingi zamonlardan ota bobolarimiz qiz bolalarning voyaga etganidan so‘ng ya’ni o‘n olti o‘n sakkiz yoshlarida turmushga berishga xaraqat qilishgan bu yoshga qadar qiz bolaning o‘zga jins vakillari bilan munosabatga kirishishi juda qattik nazoratga olingan. Shuningdek ushbu jinoyatning

Subekti O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasida ko‘rsatilganidek 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs xisoblanadi sababi ushbu yoshdan boshlab shaxs jinsiy aloqa qilish erkinligiga ega bo‘ladi va o‘zining jinsiy hayotini o‘zi nazorat qiladi.

³ Коняхин, В.П., Сяткин, Н.Н. Ненасильственные половые преступления по уложению о наказаниях уголовных и исправительных 1845 г.: система и виды / Международная науч.-практ. конф. «Развитие национального законодательства в условиях глобализации: опыт России и стран Азиатско- Тихоокеанского региона», 2011.

Обектив томон: Jinoyat kodeksida ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning ob‘ektiv tomoni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 128-moddasida ko‘rsatilgan harakatni sodir etishni o‘z ichiga olgan. Ya‘ni erkak yoki ayolning qarama-qarshi jinsdagi o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan ixtiyoriy ravishda jinsiy aloqa qilishi yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishida ifodalanadi.

Ushbu xarakatlar psixoseksualogik orientatsiyalarning buzilishi sifatida talqin qilinadi bundan tashqari jabrlanuvchida bunday psixologik buzilishlarning paydo bo‘lishida asosan katta yoshdagi shaxs ya‘ni jinoyatchi tarafidan qilinadigan xarakatlar natidjasida paydo bo‘ladi.

Shuning uchun, R.E.Zatoning so‘zlariga ko‘ra, ushbu jinoyatning ob‘ektiv tomoni ixtiyoriy ravishda, ikkala tomonning aniq roziligi bilan, ya‘ni zo‘ravonliksiz, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan kattalarning jinsiy aloqasi yoki jinsiy harakatlarini sodir etishda ifodalanadi." S.V.Borodinning fikricha, "jabrlanuvchining jinsiy aloqa yoki boshqa jinsiy harakatlarni sodir etishga ixtiyoriy va majburiy bo‘lmaganligi aniqlanishi lozim"⁴.

Ushbu jinoyat tarkibiga ko‘ra formal tarkibli jinoyat hisoblanadi ya‘ni jinoyat shaxs o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqaga kirishgan vaqtda tugallangan hisoblanadi. Shaxsning o‘z jinoiy xarakatlarini amalga oshirish maqsadida jabrlanuvchili o‘jiz axvolga tushirishga (uyqu dorilar, alkohol maxsulotlari va boshqalar) va jinsiy a‘zolarini jabrlanuvchining jinsiy azolariga tekkizib jinsiy extiroslarini qo‘zgatishga urinish kabi xarakatlar boshlanib jinoyat jinsiy aloqaga kirishilganga qadar turli sabablarga ko‘ra oxiriga etmagan bo‘lsa bunda bunday qilmishlar jinoyatga suiqaat sifatida baxolanib O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 25-moddasi orqali 128-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Subektiv tomon: Har qanday jinoyatning subektiv tomonining mazmuni aybdorning o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va uning oqibatlariga munosabati hisoblanadi. Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, jinoyat qonuni

⁴ Булатов, С.Л., Мамутов, А.М. Ответственность за преступления против личности по Уголовному кодексу Казахской ССР. Алма-Ата, 1961.

jinoyatning subektiv tomoni sifatida faqat shaxsning o'zi tomonidan sodir etilgan harakatga qat'iy belgilangan shaklda ifodalangan ruhiy munosabatini tan oladi.

Jinoyat sodir etishda qasdning elementi (belgisi) uchun zaruriy shart bu jinoyat sub'ektiv tomonidan 16 yoshga to'lmagan, jinsiy yaxlitligi va jinsiy rivojlanishi qonun bilan himoyalangan shaxsga nisbatan jinsiy xatti-harakatlar sodir etganligini anglashdir.

Ushbu jinoyatning xalqaro huquq normalari tomonidan qanday tasiflanishiga to'xtaladigan bo'lsak dast avval MDH davlatlaridan boshlashimiz maqsadga muvofik bo'ladi sababi post sovet davlatlarining qonunchiliklari ko'pincha bir biriga uxshash, mazmunan yaqinligi kuzatiladi. MDHning barcha mamlakatlarida 16 yoshga to'lmagan (yoki balog'at yoshiga etmagan) shaxs bilan jinsiy aloqa va boshqa jinsiy harakatlarning bevosita ob'ekti jinsiy daxlsizlikdir. Bunday holda, MDHga a'zo davlatlarning har birining jinoyat qonuni voyaga etmaganlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan bir xil ijtimoiy munosabatlarni himoya qiladi⁵.

⁵ Андреева, В.Н. Преступления против половой неприкосновенности и половой свободы личности. Учебно-методическое пособие. Краснодар, 2005

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
4. “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son farmoni.
5. “O‘zbekiston respublikasi Oliy majlisining bola huquqlari bo‘yicha vakili (bolalar ombudsmani) faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senati kengashining qo‘shma qarori.
6. “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296 son qarori.
7. “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son farmoni.
8. “Voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti” to‘g‘risida O‘zbekiston respublikasi Oliy sudi plenumining 21-sonli qarori 2000-yil 15-sentabr.
9. Bola huquqlari. Yuridik Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik G‘. Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYU nashriyoti, 2008 yil.
10. Bolalami himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo‘llanma. T.: UNICEF, Inson huquqlari bo'yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. — B. 163.
11. Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo‘llanma. T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006 yil.
12. Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas’ul muharrir A.X.Saidov. T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011 yil.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Ветрова Г. Н., Мельникова Э. Б. Закон о ювенальной юстиции в Российской Федерации. Проект // Правозащитник. 1996 г
2. Ткаченко А. В. Ювенальная юстиция в России: за и против Социально-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ. 2018 г.
3. С.Н. Апатенко «Ювенальная юстиция в системе государственной молодежной политики» //Материалы «круглого стола» Государственной думы ФС РФ «Становление ювенальной юстиции в России: опыт, проблемы и перспективы», 20 марта 2006 г.
4. «Международно-правовое регулирование ювенальной юстиции в документах организации объединенных наций» В.Н. Стешенко.

Elektron manbalar:

- 1.<https://lex.uz/>
- 2.<https://www.unicef.org/uzbekistan/uz>
- 3.<http://www.Oliysud.uz/>
- 4.<https://ziyonet.uz/>
- 5.<http://pravo.gov.ru/>
- 6.<http://www.juvenilejustice.ru>